

Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2017 yil 1 noyabr holatiga

2017 yilning 1 noyabr holatiga Xorazm viloyatida jami ro'yhatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni 14280 taga etdi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 406 taga ko'pdir(2,8%).


Shuningdek, faoliyat ko'ssatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 13757 ta bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,8 % ga ko'paygan hamda ularning soni 379 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'ssatmayotgan korxona va tashkilotlar soni 2 ta (0,4 %) ga kamaygan hamda ularning umumiy soni 523 tani tashkil etgan.

Shu bilan birga 2017 yilning yanvar-oktyabr oylarida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni 1451 taga etib, tugatilganlar soni 375 taga kamligi va ularning umumiy soni 1076 ta ekanligi kuzatilmoqda.


Tumanlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda



2017 yil yanvar-oktyabr oylarida 1451 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2016 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 10,5 % ga ko'paygan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Urganch shahrida (422 ta), Xiva tumani (219 ta), Urganch (175 ta), va Xonqa tumanlarida (115 ta) tashkil etilgan. Eng kam Xiva shahri (17 ta), Yangibozor (40 ta), hamda Bog'ot (49 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda




Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi sanoat (343 ta), savdo (308 ta), qishloq va o'rmon xo'jaligi (165 ta) va qurilish(143 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqada (26 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (49 ta) hamda tashish va saqlashda (67 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoxda.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2017 yil 1 noyabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 51 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 17 taga yoki 66,6 % ga o'sgan. Bundan tashqari 2017 yil yanvar-oktyabr oylarida 10 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangidan tashkil topgan. Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qo'radigan bo'lsak sanoatda –6 ta, savdoda-2 ta, qurilish hamda qishloq va o'rmon xo'jaligida-1 ta dan tashkil topgan.


Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining tumanlar kesimidagi soni, birlikda



Kichik korxona va mikrofirmalar soni


2017 yil 1 noyabr holatiga viloyatimzda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 10971 tasi tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2016 yil 1 noyabr holatiga qaraganda 5,2 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 2779 tasi (25,3 %) Urganch shahriga, 2288 tasi (20,9 %) Xiva, 1137 tasi (10,4 %) Urganch tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 10971 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 3271 tasi (29,8 %) – savdoda, 2148 tasi (19,6 %) - sanoatda, 1399 tasi (12,8 %) - qurilishda, 1032 tasi (9,4 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 749tasi (6,8 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 533 tasi (4,9 %) - tashish va saqlashda, 226 tasi (2,1 %) - sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 206 tasi (1,8 %) - axborot va aloqa sohasida, shuningdek 1407 tasi (12,8 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinish turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da




2017 yil yanvar-oktyabr oylarida 1355 kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2016 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 8,4 % ga o'sgan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Urganch shahrida (387 ta), Xiva (210 ta), Urganch tumanlarida (168 ta), tashkil etilgan. Eng kam Xiva shahri (11 ta), Yangibozor (36 ta), Bog'ot (46 ta) hamda Shovot (49 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (340 ta), savdoda (308 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (158 ta) va qurilishda (143 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa - axborot va aloqa sohasida (26 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (48 ta), tashish va saqlashda (67 ta) hamda yashash va ovqatlanish (122 ta) tashkil etilgan.

Oilaviy korxonalar soni

Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o`tgan oilaviy korxonalar soni - 2017 yilning 1 noyabr holatiga 837 tani tashkil etib, ulardan 809 tasi yoki 96,6 % faoliyat yuritadi.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Xorazm viloyat statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Nashr uchun mas'ul: D.Kurbanova
(0362) 224-65-11

Korxonalar va tashkilotlarning yagona
davlat
registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida
tayyorlangan